

## **BANK KARTASINI CHIQRISH VA UNGA XIZMAT KO'RSATISH BO'YICHA OMMAVIY OFERTA SHARTNOMASI**

Ushbu bilan, "Ipoteka-bank" aksiyadorlik tijorat ipoteka banki (bundan buyon shartnoma matnida "**Bank**" deb yuritiladi), jismoniy shaxslarga (bundan buyon shartnoma matnida "**Mijoz**" deb yuritiladi) bank kartasini ochish va ularga xizmat ko'rsatish bo'yicha ommaviy oferta shartnomasini (bundan buyon shartnoma matnida "**Shartnoma**" deb yuritiladi) tuzishni O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 369-moddasiga muvofiq taklif qiladi.

Mijoz tomonidan ushbu shartnomaning 3-bo'limida ko'rsatilgan harakatlar amalga oshirilishi, Mijozning mazkur shartnomada ko'rsatilgan tartibda va hajmda Bank bilan Shartnoma tuzishga rozi bo'lganligini hamda Shartnoma talablarini e'tirozsiz to'liq qabul qilganligini bildiradi.

Shartnoma Mijoz bank kartasi ochish uchun Bankka murojaat qilganida bosma shaklda yoki Mijoz Bankning mobil ilovasi orqali masofadan bank kartasi ochish uchun murojaat qilganida elektron shaklda taqdim qilinadi. Mijoz shartnomani Bankning korporativ "www.ipotekabank.uz" veb-saytida va Bank mobil ilovasida elektron PDF-fayl ko'rinishida yuklab olishi mumkin.

### **I. ASOSIY TUSHUNCHA VA ATAMALAR**

1.1. Shartnomada quyidagi asosiy tushuncha va atamalardan foydalaniladi:

**Aksept** – ofertaning to'liq va so'zsiz qabul qilinishi. Ofertani akseptlash shartnoma tuzilganligini vujudga keltiradi va huquqiy ahamiyatga ega;

**Bank kartasi** – mijozga to'lov infratuzilmasi orqali to'lovlarni amalga oshirish yoki naqd pul mablag'larini olish yohud valyuta ayirboshlashni amalga oshirish va Bank tomonidan belgilangan boshqa amaliyotlarni bajarish imkonini beruvchi to'lov vositasidir. Bank kartasi debet, kredit kartasi, shu jumladan virtual (jismonan mavjud bo'lmagan) karta bo'lishi mumkin;

**Bank kartasi blokirovkasi** – qoidalarga muvofiq bank kartasining nafaol holatga o'tkazilishi;

**Bank karta hisobvarag'i** – bank kartasi orqali pul mablag'larini tasarruf etish mumkin bo'lgan bank hisobvarag'i;

**Bank tarifi** – bankning vakolatli organi tomonidan tasdiqlangan, bank kartalari orqali amaliyotlar amalga oshirilganda, bank kartalarini chiqarishda va ularni yangisiga almashtirib berishda va boshqa bank xizmatlarini ko'rsatishda undiriladigan haq miqdorlarini belgilab berilgan hujjat;

**Bankdan tashqari to'lov tashkiloti** – bank hisoblanmaydigan, to'lov xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha faoliyatni amalga oshirishga vakolatli bo'lgan yuridik shaxs (CLICK, PAYME, RAYNET va boshqalar); **Internet to'lov** – bank karta egasiga internet tarmog'i orqali elektron to'lovlarni amalga oshirish imkonini taqdim etish;

**Masofaviy xizmat ko'rsatish tizimi** – elektron xizmatlardan foydalanish uchun to'lov xizmatlaridan foydalanuvchi va ushbu xizmatlarni yetkazib beruvchi o'rtasidagi aloqani ta'minlaydigan telekommunikatsiya vositalari, raqamli va axborot texnologiyalari, dasturiy ta'minot va uskunalari majmuasi;

**Minimal balans qoldig'i (sug'urta depoziti)** – bank karta hisobvarag'ida saqlanishi majburiy bo'lgan pul mablag'larining minimal qoldig'i;

**Oferta** – bank kartasidan foydalanish istagini bildirgan shaxslarga yuborilgan, yetarli darajada aniq bo'lgan va Bank o'zini taklif yo'llangan va uni qabul qiladigan shaxs bilan shartnoma tuzgan deb hisoblash niyatini ifoda etadigan taklif;

**PIN-kod** – Mijozning shaxsiy identifikatsiya raqami bo'lib, u bank karta hisobvarag'idagi pul mablag'larini boshqarish huquqini hamda mablag'larni boshqarishga Mijoz tomonidan ruxsat berilganligini tasdiqlaydi;

**To'lov tizimi** – to'lovlarni to'lov tizimining operatori, to'lov tizimi ishtirokchilari va/yoki to'lov tashkilotlarining to'lov tizimi operatori tomonidan belgilangan to'lov tizimining tartib-tamoyillarini, infratuzilmasini va qoidalarini qo'llash vositasida hamkorlik qilish yo'li bilan amalga oshirishni ta'minlaydigan munosabatlar majmuidir;

**Ushlab turish (Hold)** – bank kartasi orqali muvofaqiyatli amalga oshirilgan amaliyot va xizmat haqi mablag‘ini muzlatish.

**Shaxsga doir ma’lumotlar** – muayyan jismoniy shaxsga taalluqli bo‘lgan yoki uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan elektron tarzda, qog‘ozda va\yoki boshqa moddiy jismda qayd etilgan axborot;

**Shubhali amaliyot** – tayyorlash, sodir etish jarayonida bo‘lgan yoki sodir etib bo‘lingan, ichki nazoratni o‘tkazish vaqtida tijorat bankida uning jinoiy faoliyatidan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va\yoki ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirish maqsadida amalga oshirilganligiga shubha paydo bo‘lgan amaliyot;

**Qoidalar** – O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari shuningdek, xalqaro va mahalliy to‘lov tizimlari hamda Bank tomonidan o‘rnatilgan bank kartalaridan foydalanish qoidalari. Mijoz ushbu oferta qilingan shartnomani akseptlash orqali ushbu qoidalar qo‘llanilishiga o‘z roziligini bildiradi;

**SMS banking** – bank kartasi vositasida amalga oshirilgan to‘lovlarni nazorat qilish tizimi. Onlayn tarzda amalga oshirilgan har bir to‘lov va bank kartasining joriy qoldig‘i bo‘yicha bank kartasi egasining telefoniga SMS xabar kelishi;

**PAN** – (Primary Account Number) to‘lov bank kartani yuzidagi 16 xonali raqamlar majmuasi;

**CVV/CVC** – (Card Verification Value/Code) onlayn to‘lovlarni amalga oshiruvchi, bank kartani orqa tomonidagi raqamlar majmuasining oxiridagi 3 ta xonali raqamlardan iborat maxsus kod;

**Avtoto‘lov xizmati** – tijorat banklari yoki boshqa yuridik shaxslar ajratgan qarz\kredit yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash sharti bilan sotilgan tovar (ish, xizmat) uchun to‘lovlarni bank kartasidan avtomatik tarzda davriy ravishda yechib borish imkoniga ega bo‘lgan elektron dastur. Bank kartasining saqlovchisi qarz\kredit yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash sharti bilan tovar (ish, xizmat) olishda tijorat banklari yoki boshqa yuridik shaxslar bilan bitim tuzishda ishtirok etishi va o‘zining shaxsiga doir ma’lumotlarni taqdim qilishi orqali avtoto‘lov xizmati yordamida tegishli mablag‘lar uning bank karta hisobvarag‘idan davriy ravishda hisobdan chiqarilib borishiga o‘z roziligini berishi;

## **II. SHARTNOMANING PREDMETI**

2.1. Bank ushbu shartnomaga va qoidalarga muvofiq Mijozga bank karta hisobvarag‘ini ochib beradi va hisobvarag‘dagi mablag‘lardan hisob-kitoblarni amalga oshirishda foydalanish uchun bank kartasi taqdim qiladi hamda bank xizmatlarini ko‘rsatadi. Mijoz bank kartasidan qoidalarga amal qilgan holda foydalanadi hamda bank tariflariga muvofiq bank xizmatlari haqini to‘laydi.

## **III. SHARTNOMANI AKSEPTLASH TARTIBI**

3.1. Mijoz ushbu oferta qilingan shartnomani:

a) Bank tomonidan taqdim qilingan bank kartasini chiqarish haqidagi ariza blankasiga shaxsga doir va boshqa ma’lumotlarni kiritish va uni imzolash;

b) bankning korporativ-sayti yoki mobil ilovasining bank kartasini chiqarishga masofadan turib ariza berish imkonini beruvchi amaliyotlar qadamma-qadam bajarish; yohud

v) bank tomonidan shartnoma yangi tahrirda oferta qilingan kundan boshlab 10 kalendar kunidan so‘ng bank kartasidan foydalanishni davom ettirish orqali akseptlaydi;

3.2. Mijoz ushbu shartnomaning 3.1-bandida ko‘rsatilgan harakatlarni bajargan paytdan boshlab aksept olingan va ushbu shartnoma tuzilgan hisoblanadi.

3.3. bank kartasi amal qilish muddati davomida bankning mulki hisoblanadi, u amal qilish muddati tugagandan so‘ng yoki almashtirilganda yohud bankning talabi bo‘yicha qaytarilishi lozim.

3.4. Shartnoma Mijozga bank karta hisobvarag‘i ochilgan bank filiali joylashgan yerda tuzilgan hisoblanadi.

## **VI. BANK KARTASINI CHIQRARISH VA ULARGA XIZMAT KO‘RSATISH SHARTLARI**

4.1. Bank ushbu shartnomaning 3.1-bandiga muvofiq Mijozning akseptini olgan bank ish kunidan keyingi bank ish kunidan kechiktirmay Mijoz nomiga bank karta hisobvarag‘ini ochadi hamda 3 kunlik muddatda bank kartasini chiqaradi:

4.2. Chiqarilgan bank kartasi Mijozga yoki uning ishonchli vakiliga, Mijoz identifikatsiya qilinganidan so'ng qoidalarda belgilangan tartibda taqdim etiladi.

4.3. Bank kartasi kuryerlik xizmati orqali qo'shimcha xizmat haqi evaziga yetkazib berilishi ham mumkin. Qo'shimcha xizmat haqining miqdori Bank tariflarida belgilanadi.

4.4. Bank kartasining muddati, bank kartasining old tomonida ko'rsatiladi (masalan: 03/24.- 31 mart 2024 yil soat 23:59ga qadar). Ushbu muddat o'tganidan so'ng bank kartasi avtomatik ravishda bloklanadi.

4.5. Bank tomonidan bank kartasini chiqarish qoidalarda belgilangan asoslarga ko'ra rad qilinishi mumkin.

4.6. Bank kartasi Bank tomonidan qoidalarda belgilangan hollarda yoki vakolatli organ tashabbusi bilan bloklanishi mumkin.

4.7. Mijoz bevosita Bankka yozma ravishda yoki Bankning masofaviy bank xizmati tizimlari imkoniyatlaridan foydalangan holda xabarnoma yuborish orqali bank kartasi bloklanishini so'rashi mumkin.

4.8. Bank kartasining PIN-kodi 3 marotaba noto'g'ri kiritilganida bank kartasi avtomatik ravishda bloklanadi.

4.9. Qoidalarga binoan bank karta hisobvarag'ida saqlanishi majburiy bo'lgan pul mablag'larining minimal qoldig'i shakllantiriladi.

4.10. "Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat" qoidalariga muvofiq bank kartalari bo'yicha amaliyotlar to'xtatib turilishi mumkin.

4.11. Bank kartasi hisobvarag'idan chiqim qilingan e'tirozli amaliyotlar bo'yicha Mijoz bankka yozma e'tiroz taqdim qilishi lozim.

4.12. Bank Mijozning e'tirozlarini tegishli to'lov tizimining qoidalarida belgilangan tartibda va muddatlarda ko'rib chiqadi. Bunda tegishli to'lov tizimining qoidalarida Mijozning e'tirozlarini ko'rib chiqish uchun to'lovlar belgilangan taqdirda Mijoz tomonidan to'lanadi.

## **V. BANK KARTASIDAGI MABLAG'LARDAN FOYDALANISH VA HISOBDAN CHIQRISH, TARAFLAR O'RTASIDA HISOB-KITOBLARNI AMALGA OSHIRISH**

5.1. Mijoz bank kartasida mavjud mablag'lardan savdo nuqtalarida o'rnatilgan to'lov terminallari, bankomatlar, elektron to'lov tizimlarining mobil ilovalari (va hokazo) orqali to'lov summasini ko'rsatgan holda bank kartasi PIN-kodini yoki SMS-xabarnoma orqali kelgan tasdiq kodini tegishli qurilmaga yoki mobil ilovaga kiritish orqali foydalanadi.

Mijozning ruxsati bilan boshqa shaxslar ham bank kartasidan foydalanilishi mumkin. Bank kartasi PIN-kodi yoki Mijozning SMS-banking tizimiga ulangan telefon raqamiga SMS-xabarnoma orqali kelgan tasdiq kodi Mijoz tomonidan boshqa shaxslarga ma'lum qilinishi Mijozning ruxsati deb hisoblanadi.

5.2. Mijozning majburiyatlari bo'yicha undiruv Mijozning bank hisobvarag'lariga qaratilganida, bank tomonidan vakolatli organining tashabbusi bilan Mijozning bank kartasidan undiruv uchun yetarli bo'lgan mablag'lar qonunchilikda o'rnatilgan tartibda hisobdan chiqariladi va vakolatli organ tomonidan ko'rsatilgan hisobvarag'larga o'tkazib beriladi.

5.3. Mijoz avtoto'lov xizmatidan foydalanuvchi tijorat banklaridan yoki boshqa yuridik shaxslardan olgan qarzkredit yoki bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan xarid qilgan tovar (ish, xizmat) uchun to'lovlar bank kartasidan avtoto'lov xizmati orqali Mijozning qo'shimcha roziligisiz avtomatik (inson omilisiz) hisobdan chiqariladi va tegishli to'lovni oluvchining hisobiga o'tkaziladi.

Ushbu qoida Mijoz uchinchi shaxslarning tijorat banklaridan yoki boshqa yuridik shaxslardan olgan qarzkredit yoki tovar (ish, xizmat) haqi to'lanishini birgalikda qarz oluvchi, kafil va hokazo tarzda o'z zimmasiga olgan bo'lsa ham qo'llaniladi.

5.4. Bank va boshqa to'lov tizimlari xizmat haqlari tegishli xizmat ko'rsatilgan sanada amalda bo'lgan Bank tariflarida hamda qoidalarda belgilangan tartibda va miqdorda Bank karta hisobvarag'idan akseptsiz hisobdan chiqariladi. Mijoz ko'rsatilgan xizmatlar haqini boshqa hisobvarag'lardagi mablag'lardan naqd yoki

naqd pulsiz shaklda ham amalga oshirishi mumkin.

Bank kartasini ochish uchun undiriladigan to'lovlar Mijoz xohishiga ko'ra bank kassasiga naqd va naqdsiz ko'rinishda oldindan to'lanishi yoki bank karta hisobvarag'iga dastlabki kelib tushgan pul mablag'idan bank tarifi bo'yicha avtomatik tarzda undirib olinishi mumkin.

5.5. Bank tariflariga va mahsulot pasportiga bank tomonidan o'zgartirishlar kiritilishi mumkin. Bank tariflariga va mahsulot pasportiga kiritilayotgan o'zgartirishlar haqida Bank Mijozni, o'zgartirishlar kuchga kirishidan 10 kun oldin bankning korporativ [www.ipotekabank.uz](http://www.ipotekabank.uz) veb-saytida e'lon joylashtirish va Mijozning SMS-banking tizimiga ulangan mobil ilovasi telefon raqamiga SMS-xabarnoma yuborish orqali xabardor qiladi.

Mijozning Bankka bog'liq bo'lmagan (telefon raqamining ish faoliyatida emasligi va hokazo) sabablarga ko'ra bank tariflariga o'zgartirishlar kiritilganligidan xabarsiz qolishi, bankka o'zgargan tariflar bo'yicha xizmat haqi undirish uchun to'sqinlik qilmaydi. Mijozning o'zgargan tariflar bo'yicha bank xizmatlaridan foydalaninishi Mijozning bank tariflariga kiritilgan o'zgartirishlarga rozi ekanligini bildiradi.

## **6. BANKNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI**

### **6.1. Bank quyidagi huquqlarga ega:**

6.1.1. Mijozga tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat qoidalariga muvofiq mijozni o'rnatilgan tartibda identifikatsiyalagan holda bank kartalarini foydalanishga taqdim etish;

6.1.2. bank tariflarini mustaqil belgilash, bank kartasini chiqarish va unga xizmat ko'rsatganlik uchun xizmat haqini bank tariflariga muvofiq undirish;

6.1.3. mijozning bank karta hisobvarag'iga kelib tushgan mablag'larning asosililigini amaldagi qonunchilik talablaridan kelib chiqib o'rganish, zarur hollarda o'tkazilayotgan amaliyotlar haqidagi qo'shimcha ma'lumotlar olish uchun Mijozga murojaat qilish;

6.1.4. Mijozning shaxsiga oid ma'lumotlarni qayta ishlash;

6.1.5. ushbu shartnomaning 5.2. va 5.3-bandlarida ko'rsatib o'tilgan to'lovlarni Mijozning roziligini olmasdan amalga oshirish;

6.1.6. bank Mijozdan olingan axborotlar\hujjatlar ishonchliligiga shubhalar vujudga kelganida tegishli tashkilotlarga murojaat qilish;

6.1.7. taqdim qilingan hujjatlar nusxalarining to'g'riligiga gumon yoki boshqa zaruriyat paydo bo'lgan taqdirda, hujjatlarning asl nusxalarini taqdim qilinishini talab qilish;

6.1.8. bank Mijoz tomonidan identifikatsiyalash uchun zarur bo'lgan hujjatlar taqdim etilmaganda, atayin noto'g'ri bo'lgan hujjatlar taqdim etilganda yoki qonun hujjatlariga va ushbu shartnomaga muvofiq Mijozdan so'ralgan hujjatlarni taqdim etilmaganida hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda bank kartasi ochishni yoki bank kartasi bo'yicha amaliyotlarni bajarishni rad etish (Bank karta hisobvarag'iga pul mablag'larini kiritish amaliyotlari bundan mustasno);

6.1.9. bank karta hisobvarag'i orqali shubhali amaliyot o'tkazilganligi aniqlanganida, o'tkazilgan amaliyotning qonuniyligi to'g'risida Mijozdan yozma tushuntirish xati olinguniga qadar bank Mijozga xizmat ko'rsatishni to'xtatib turish, shubhali amaliyot o'tkazilishi natijasida bank karta hisobvarag'ida shakllangan mablag'lar chiqim qilinishini cheklash, doimiy ro'yxatdan o'tgan manzil bo'yicha Mijozni o'rganish shu jumladan, bevosita shartnomada ko'rsatilgan shaxs tomonidan amaliyotning o'tkazilayotganligini o'rganish;

6.1.10. Mijozning masofaviy bank xizmatlaridan Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish maqsadida foydalanilganligi haqida asosli shubhalar mavjud bo'lganda, bank kartasi orqali amaliyotlar o'tkazishni vaqtincha to'xtatib qo'yish hamda bank kartasini muomaladan chiqarish;

6.1.11. bank kartasi yoki uning rekvizitlaridan noqonuniy foydalanishni tasdiqlovchi holatlar

mavjudligida hamda ushbu shartnomada va qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda bank kartasi orqali amaliyotlar o'tkazishni vaqtincha to'xtatib qo'yish hamda bank kartasini muomaladan chiqarish;

6.1.12. Mijozning SMS-banking tizimiga ulangan telefon raqamiga ko'rsatilayotgan bank xizmatlari, ularning shartlariga kiritilayotgan o'zgartirishlar va Bank Mijozni xabardor qilishni lozim topgan boshqa ma'lumotlarni SMS xabarnoma ko'rinishida yuborish;

6.1.13. Mijozni kamida 10 kalendar kun oldin ushbu shartnomada belgilangan tartibda xabardor qilish orqali bank tariflariga o'zgartirish kiritish;

6.1.14. shartnomaga o'zgartirish kiritishni yoki shartnomani yangi tahrirda tuzishni oferta qilish;

6.1.15. bank qonun hujjatlariga va ushbu shartnomaga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

## **6.2. Bankning majburiyatlari:**

6.2.1. bank kartasini ushbu shartnomada belgilangan tartibda va muddatda chiqarish;

6.2.2. bank kartalari orqali o'tkazilgan amaliyotlar bo'yicha hisob-kitoblarni o'z vaqtida va to'g'ri amalga oshirish;

6.2.3. Mijoz so'rovi asosida bank kartasidan foydalanish qoidalari hamda ular orqali amaliyotlarni amalga oshirish bo'yicha Bank va Mijozning javobgarlik chegarasi to'g'risida axborot berish;

6.2.4. Mijozning bank karta hisobvarag'ini to'ldirish uchun kelib tushgan pul mablag'larini 3 bank ish kunidan kechiktirmasdan bank karta hisobvarag'iga kiritib qo'yish. Agar pul mablag'larini bank karta hisobvarag'iga o'tkazish dam olish yoki bayram kunlariga to'g'ri kelsa pul mablag'larini o'tkazish dam olish yoki bayram kunlaridan keyingi ish kunida amalga oshiriladi;

6.2.5. Mijozdan bank kartasi yo'qolganligi yoki o'g'irlanganligi to'g'risida xabarnoma olinganda, bank kartasi orqali amaliyotlarni o'tkazishni vaqtincha to'xtatib qo'yish hamda bank kartasini muomaladan chiqarish choralarini ko'rish;

6.2.6. bank karta hisobvarag'i yopilganda, keyingi amaliyot kunidan kechiktirilmagan holda karta hisobvarag'ida mavjud pul mablag'larini Mijoz ko'rsatgan to'lov rekvizitlari bo'yicha o'tkazib berish;

6.2.7. bank tariflariga kiritilgan o'zgartirishlar to'g'risida, bunday o'zgartirishlarni amalga kiritishdan avval kamida 10 kalendar kun oldin bankning korporativ "www.ipotekabank.uz" veb-saytida e'lon joylashtirish hamda Mijozni ushbu shartnomada belgilangan tartibda xabardor qilish;

6.2.8. bank kartasini amal qilish muddatidan avval to'xtatish to'g'risida Mijozni kamida 10 kalendar kun oldin ushbu shartnomada belgilangan tartibda xabardor qilish;

6.2.9. Mijoz talabiga binoan uning bank kartasidan foydalanish bilan bog'liq tegishli hujjatlarni va axborotni ushbu shartnomada belgilangan tartibda taqdim etish (bank tariflarida bunday hujjatlarni va axborotni taqdim qilganlik xizmat haqi undirilishi nazarda tutilishi mumkin).

## **7. MIJOZNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI**

### **7.1. Mijozning huquqlari:**

7.1.1. bank karta hisobvarag'ini naqd va naqdsiz mablag'lar bilan to'ldirish;

7.1.2. qoidalar va ushbu shartnomada ko'zda tutilgan shartlar va tartibga asosan bank kartasi orqali amaliyotlarni amalga oshirish;

7.1.3. bankdan bank kartasidan foydalanish qoidalari hamda ular orqali amaliyotlarni amalga oshirish bo'yicha Mijoz va bankning javobgarlik chegarasi to'g'risidagi to'liq axborotni olish;

7.1.4. bankdan bank kartasi orqali amalga oshirilgan barcha amaliyotlar to'g'risida to'liq axborot olish va amaliyotlarning to'g'riligini tekshirish;

7.1.5. bank karta hisobvarag'ini tasarruf etish imkoniyatini beruvchi qo'shimcha bank kartalarini chiqarish va rasmiylashtirishni Bankdan so'rash;

7.1.6. bank kartasidan unda ko'rsatilgan muddat davomida foydalanish;

7.1.7. o'z javobgarligi ostida boshqa shaxslarga bank kartasidan foydalanish va bank karta

hisobvarag'ida mablag'larni tasarruf qilish imkonini berish;

7.1.8. bank karta hisobvarag'ini kelgusida yopish sharti bilan bank kartalaridan foydalanishni rad etish;

7.1.9. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan boshqa huquqlardan foydalanish.

## **7.2. Mijoz majburiyatlari:**

7.2.1. bank kartasidan foydalanishdan avval ushbu shartnoma va qoidalar bilan tanishib chiqish hamda ushbu shartnoma va qoidalar talablariga so'zsiz rioya qilish;

7.2.2. bank kartasini ushbu shartnomaga muvofiq olganidan so'ng unga o'zining PIN-kodini o'rnatish;

7.2.3. SMS-banking tizimiga ulangan telefon raqami ish holatida bo'lishini va ushbu telefon raqamiga yuborilayotgan SMS-xabarnoma bevosita Mijozning o'zi tomonidan o'qilishini ta'minlash;

7.2.4. bank kartasiga o'rnatilgan PIN-kodni yoki Mijozning SMS-banking tizimiga ulangan telefon raqamiga SMS xabarnoma orqali kelgan tasdiq kodini boshqa shaxslarga ma'lum qilganlik yohud boshqacha usulda bank karta hisobvarag'idagi mablag'larni tasarruf qilish imkonini boshqa shaxslarga berganlik oqibatlarini uchun shaxsan javob berish;

7.2.5. bank karta hisobvarag'idagi mablag'lardan hisobvarag'da turgan mablag'lar doirasida foydalanilish;

7.2.6. qoidalarda va mazkur shartnomada nazarda tutilgan holatlarda bankning so'roviga ko'ra, bank karta hisobvarag'i orqali o'tkazilayotgan amaliyotlar haqidagi qo'shimcha ma'lumotlarni va yozma tushuntirishlarni taqdim qilish;

7.2.7. bank kartasi yo'qotilgan, o'g'irlangan yoki beruxsat foydalanilgan holatlarda bank kartasi orqali amaliyotlarni o'tkazishni vaqtincha to'xtatib qo'yish uchun darhol bankka murojaat qilish yoki ushbu amaliyotni bankning mobil ilovasi orqali mustaqil amalga oshirish;

7.2.8. Mijozni identifikatsiyalash uchun zarur bo'lgan hujjatlar (masalan, shaxsni tasdiqlovchi hujjat va undagi ma'lumotlar) o'zgartirganda mazkur hujjatlar nusxalarini 3 bank ish kuni mobaynida Bankka taqdim etilishi;

7.2.9. bank kartasi orqali bajarilgan amaliyotlar uchun bank xizmatlari haqini bank tariflarida nazarda tutilgan tartibda va miqdorda to'lanishini ta'minlash;

7.2.10. elektron hamyon hisobvarag'i va/yoki bank kartasiga ortiqcha tushgan mablag'larni ishlatmaslik hamda bu haqida 2 (ikki) ish kunidan kechiktirmasdan bankni xabardor qilish.

## **VIII. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI**

8.1. Mijoz quyidagi holatlarda javobgarlikni o'z zimmasiga oladi:

- bank kartasi hisobvarag'i orqali amalga oshirilgan amaliyotlarning qonuniyligi va bankka taqdim etilgan ma'lumotlar va hujjatlarning to'g'riligi uchun;

- bank kartasi hisobvarag'idan noto'g'ri foydalanishi yoki noqonuniy harakatlari natijasida Bankka yetkazilgan zararlarni to'liq qoplanishi uchun;

- bank kartasi yo'qolganligi yoki o'g'irlanganligi to'g'risida bankni ushbu shartnomada belgilangan tartibda xabardor qilmaganligi oqibatida, bank kartasi orqali amaliyotlar amalga oshirilganligi uchun;

- bank kartasi PIN-kodini yoki Mijozning SMS-banking tizimiga ulangan telefon raqamiga SMS-xabarnoma orqali kelgan tasdiq kodini boshqa shaxslarga berganlik oqibatlarini uchun.

8.2. Elektron to'lovlarni amalga oshirishning qonun hujjatlarida belgilangan muddatlari Bank tomonidan buzilgan taqdirda u Mijozga kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan elektron to'lov summasining

0,1 foizi miqdorida lekin kechiktirilgan elektron to'lov summasining 10 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

8.3. Bank quyidagi holatlarda Mijoz oldida javobgar hisoblanmaydi:

- Mijoz ushbu shartnomada belgilangan qoida va tartiblarni buzgan bo'lsa;

- Mijoz tomonidan noqonuniy harakatlar sodir qilingan holatda;

- bank kartasi yo'qolganligi yoki undan ruxsatsiz foydalanilganligi fakti haqida Mijoz tomonidan Bank xabardor qilinmaganda;

- bank kartasiga bog'liq ma'lumotlar (PIN-kod, SMS-xabarnoma orqali kelgan kod va boshqalar) Mijoz tomonidan uchinchi tarafga ma'lum qilinganda;

- to'lov tizimlarida uzilishlar ro'y berganida;

- bank kartasi vositasida xarid qilingan (onlayn) tovar (ish, xizmat) sifatsizligi yoki tovar (ish, xizmat) sotuvchisi Mijoz oldidagi majburiyatlarini bajarmaganligi uchun to'lov tizimlarining xizmatlaridan foydalanganlik uchun tegishli to'lov tizimi o'z tarifiga muvofiq undirgan to'lovlar uchun.

### **IX. FORS-MAJOR HOLATLAR**

9.1. Tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarning qisman yoki to'liq bajarilmaganligi uchun, agar ushbu vaziyat shartnoma tuzilgandan keyin, tomonlar oldindan ko'ra olmagan, oqilona choralar bilan bartaraf etish mumkin bo'lmagan favqulodda tUSDagi hodisalar natijasida vujudga kelgan yengib bo'lmaydigan kuch holatlarining oqibatlarini hisoblansa javobgarlikdan ozod etiladi.

9.2. Fors-major holatlariga tomonlarning irodasi va faoliyatlariga bog'liq bo'lmagan tabiat hodisalari (zilzila, ko'chki, bo'ron, qurg'oqchilik va boshqalar) yoki ijtimoiy-iqtisodiy holatlar (urush holati, qamal, ommaviy tartibsizliklar, davlat manfaatlarini ko'zlab import va eksportni taqiqlash va boshqalar) sababli yuzaga kelgan sharoitlar kiradi.

9.3. Fors-major holatlariga asoslanadigan tomon boshqa tomonni bunday holatlar boshlanganligi to'g'risida yozma ravishda zudlik bilan xabardor qilishi va bunday holatlarning boshlanishi faktini tasdiqlovchi tegishli organ tomonidan berilgan hujjatni taqdim etilishi lozim. Majburiyatni bajarishni imkoni bo'lmaganligini isbotlash fors-major holatlari yuz berganligiga asoslanayotgan tomon zimmasiga yuklatiladi.

9.4. Agar shartnomaning ushbu bo'limida ko'rsatilgan fors-major holatlari 3 oydan ko'p vaqt davom etsa, u holda har qaysi tomon boshqa tomonni xabardor qilgan holda ushbu shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish huquqiga ega. Bunda tomonlar belgilangan tartibda ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilmay qolgan qismi bo'yicha uzil-kesil hisob-kitobni amalga oshirishlari shart.

### **X. SHAXSGA DOIR MA'LUMOTLARGA ISHLOV BERISH**

10.1. Mijoz ushbu shartnomani imzolash orqali Bankka mijozning shaxsiga oid ma'lumotlarga ishlov berishga o'z roziligini beradi.

10.2. Bank Mijozning shaxsiga oid ma'lumotlariga quyidagi maqsadlarda ishlov beradi va ishlov berishi mumkin:

- ushbu shartnoma bo'yicha Bankning huquqlarini amalga oshirishda va majburiyatlarini ijro qilishda;

- Mijoz huquq va majburiyatlarini lozim darajada amalga oshirilishini ta'minlashda;

- Mijoz to'g'risidagi axborotni to'lov tizimlari, kredit byurosi, garov reyestri, skoring kompaniyasi, mobil aloqa operatori, sug'urta kompaniyasi va zaruriyatga ko'ra bank kartasi orqali to'lovlarni amalga oshirish va Mijozga bank xizmatlarini ko'rsatish jarayonida ishtirok etuvchi boshqa shaxslar bilan almashishda;

- muayyan bank xizmatining samaradorligini baholash uchun marketing izlanishlarini o'tkazish, tahliliy yoki statistik ma'lumotlarni tayyorlash va umumlashtirishda;

- Bank boshqaruv organlari, nazorat organlari, auditor yoki potensial investorlar uchun Bankning faoliyati va moliyaviy holatiga oid hisobotlarni tayyorlashda;

- Mijoz haqidagi ma'lumotlarni verifikatsiya qilish shu jumladan, firibgarlik holatlariga yo'l qo'yilmasligi, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish maqsadida;

- yangi bank xizmatlarini taklif etish maqsadida;

- yuqoridagi maqsadlarni amalga oshiish uchun shaxsiga oid ma'lumotlar aks etgan hujjatlarni ma'lumot almashinish uchun aloqa (pochta) xizmati ko'rsatuvchi tashkilotlarga taqdim qilish, elektron axborot almashinish dasturlari bazalariga joylashtirishda.

## **XI. SHARTNOMAGA O'ZGARTIRISH VA QO'SHIMCHALARNI KIRITISH**

11.1. Bank Mijozni bu haqida kamida 10 kalendar kun oldin xabardor qilib, Shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishi mumkin. Shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar Bank tomonidan shartnomani yangi tahrirda tuzish yo'li bilan ham kiritilishi mumkin.

11.2. Bank shartnomaga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalarni (shartnomaning yangi tahririni) bankning korporativ "www.ipotekabank.uz" veb-saytida va bank mobil ilovasiga joylashtirish orqali oferta qiladi va bu haqida Mijozni ushbu shartnomaning 15.3-bandida belgilangan tartibda xabardor qiladi.

11.3. Shartnomaga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar (shartnomaning yangi tahriri) shartnomaning 11.2-bandiga muvofiq oferta qilingan sanadan 10 kalendar kuni o'tgach tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar (shartnomaning yangi tahriri) kuchga kiradi hamda ushbu kundan shartnomaning (yoki shartnomaning o'zgartirish kiritilgan bandining) eski tahriri o'z kuchini yo'qotadi.

11.4. Shartnomaga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar (shartnomaning yangi tahriri) shartnomaning 11.3-bandiga muvofiq kuchga kirgan sanadan so'ng, Mijoz bank kartasidan foydalanishni davom ettirish orqali tegishli o'zgartirish va qo'shimchalarni (shartnomaning yangi tahririni) akseptlaydi.

11.5. Mijoz shartnomaga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalarga (shartnomaning yangi tahririga) rozi bo'lmasa, bank kartasidan foydalanishni to'xtatish hamda ushbu shartnomada va qoidalarda belgilangan tartibda bank karta hisobvarag'ini yopish va Shartnomadan voz kechish huquqiga ega.

## **XII. SHARTNOMADAN VOZ KECHISH SHARTLARI**

12.1. Bank Mijozni 10 kalendar kuni oldin ushbu shartnomaning 15.3-bandida belgilangan tartibda xabardor qilish orqali shartnomadan bir tomonlama haqsiz va biror-bir qo'shimcha majburiyatsiz voz kechishi mumkin.

12.2. Mijoz bank karta hisobvarag'ini kelgusida yopish sharti bilan bank kartalaridan foydalanishni rad etish orqali shartnomadan haqsiz voz kechishi mumkin.

12.3. Tarafning shartnomadan voz kechishi bank karta hisobvarag'ining qoidalarda belgilangan tartibda yopilishiga va taraflar o'rtasida to'liq hisob-kitob amalga oshirilishiga olib keladi.

Hisob-kitob natijasiga ko'ra, bank karta hisobvarag'idagi qoldiq manfiy bo'lsa, keyingi operatsiya kunidan kechiktirilmagan holda bank karta hisobvarag'ida mavjud pul mablag'larini Mijoz ko'rsatgan to'lov rekvizitlari bo'yicha o'tkazib berish. Bank karta hisobvarag'idagi qoldiq musbat bo'lsa Mijoz vujudga kelgan qarzdorlikni 3 bank ish kunida bankka to'liq to'lab beradi.

## **XIII. SHARTNOMA TUZILGAN TIL HAQIDA MA'LUMOT**

13.1. Shartnoma davlat tilida oferta qilinadi. Mijozga qulaylik yaratish maqsadida shartnomaning boshqa til(lar)ga tarjima qilingan matni shartnoma bilan birga joylashtirilishi (e'lon qilinishi, mijozga taqdim qilinishi) mumkin. Ushbu matn informatsion xarakterga ega bo'ladi shartnoma qoidalari va shartnomaning boshqa tildagi tarjima matni o'rtasida o'zaro ziddiyat aniqlansa, davlat tilidagi shartnoma qoidalari ustuvor hisoblanadi.

## **XIV. NIZOLARNI HAL ETISH**

14.1. Tomonlar o'rtasidagi kelishmovchiliklar va/yoki ushbu shartnomada nazarda tutilmagan boshqa nizoli vaziyatlar yuzaga kelganda, tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga amal qilgan holda barcha kelishmovchiliklarni muzokara yo'li bilan hal etadilar.

14.2. Tomonlar o'rtasida yuzaga kelgan nizo va kelishmovchiliklar muzokara yo'li bilan hal qilinmagan taqdirda ular O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq, ushbu shartnoma asosida bank kartasini chiqargan bank filiali yoki boshqa bo'linmasi faoliyat ko'rsatuvchi hududdagi sudga (kelishilgan sudlovga tegishlilik) murojaat qilish orqali hal etiladi.

## **XV. SHARTNOMANING BOSHQA SHARTLARI**

15.1. Mazkur shartnomaning amal qilish muddati cheklanmagan.

15.2. Hech bir taraf ushbu shartnomaning qog'oz ko'rinishini saqlashga va imzolashga majbur emas. Shartnomaning amaldagi tahriri bankning korporativ "www.ipotekabank.uz" veb-sayti yoki mobil ilovasidan



PDF-fayl ko‘rinishida yuklab olinishi m‘umkin.

15.3. Bank shartnoma doirasida barcha xabarnomalarni Mijozning SMS-banking tizimiga ulangan telefon raqamiga SMS-xabarnoma ko‘rinishida yuboradi.

15.4. Mazkur shartnomada ko‘zda tutilmagan u bilan bog‘liq bo‘lgan barcha munosabatlar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

#### **XVI. BANK REKVIZITLARI**

16.1. Bank quyidagi rekvizitlarga ega:

a) joylashgan manzili: Toshkent shahri, Shahrisabz ko‘chasi, 30-uy;

b) soliq to‘lovchining shaxsiy raqami: 202858483;

v) litsenziya: 2021 yil 25 dekabrda 74-son bilan Markaziy bank tomonidan berilgan;

g) veb-sayt: [www.ipotekabank.uz](http://www.ipotekabank.uz).